

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.R.Kapizova, I.I.Zokirov Mevali bog'lar koksidlari entomofaglarining sistematik tahlili (Sharqiy Farg'ona hududi misolida)	101
R.N.Mo'minova Qoradaryo havzasi yuksak suv o'simliklarining bioekologik xususiyatlari.....	106
S.D.Dadaev, D.A.Paluaniazova О фаунистических и экологических особенностях гельминтов мелкого рогатого скота Каракалпакстана	110
S.B.Orifov, F.R.Xolboyev Hind chumchug'i- <i>Passer indicus</i> ning O'zbekistonda ko'payish xususiyatlari va ahamiyati	116
N.K.Devonova, G.S.Mirzayeva, B.E.Soyibnazarov, Sh.E.Tursunboyeva Surxon davlat qo'riqxonasining tangachaqanotli hasharotlari (insecta: lepidoptera)	121
M.A.Axmadjonova Farg'ona vodiysida tarqalgan <i>Sitona</i> Germar, 1817 avlodi (Coleoptera: Curculionidae)ga mansub turlarning bioekologik xususiyatlari.....	127
V.A.Karimov, M.Nazarov Jadal texnologiyada arpa yetishtirish	133

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev Aholi zichligini aniqlashda yer sig'imi uslubidan foydalanish	142
I.O.Sulaymonov O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ayrim jihatlarini	146
Q.S.Yarashev, A.I.Xayitbayev Xorazm viloyati voha landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishi	150
I.Aripov, R.Mariya Sirdaryo viloyatida sho'rlangan hududlarni melioratsiyalashtirish samaradorligining iqtisodiy baholanishi	154
A.U.Usmonov, A.K.Ergashev Shahar aholi manzilgohlari shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari (Vobkent tumani misolida)	161
O.N.Xakimov Kollektor geotizimlaridagi relyefning havzaviy strukturasi	166
O.N.Xakimov Yer yuzasini kartografik ideallashtirish va uning relyef strukturasi tadqiq qilishdagi o'rni.....	178

ILMIY AXBOROT

Y.E.Altiboyev Tarixiy manbalarda keltirilgan Qashqadaryo daryosi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili	190
A.A.Akramov Oliy ta'lim tizimida ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini takomillashtirish modeli.....	195
M.J.Urinov Kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga falsafiy tavsif	199
B.F.Abdishukurov Markaziy Osiyodagi hududiy-chegaraviy muammolar (1924-yildan keyingi voqealar xususida).....	203
A.M.To'rayev Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish asosida kasbiy takomillashtirish	207
Sh.M.Kadirov Talabalarda tarixiy voqelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish	210

foiz sug'oriladigan yerlari mos keladi (*Jadvalni to'la shaklda joylashtirish imkoni bo'lmadi, zarur xollarda mualliflar bilan bog'lanish mumkin*). Respublika jami sug'oriladigan yerlariga nisbatan eng katta ulush Qoraqolpog'iston Respublikasiga to'g'ri kelib, unda 517 ming gektar sug'oriladigan yerlar mavjud. Bu ko'rsatkich bilan u respublika sug'oriladigan yerlarining 11,91 foiziga egalik qiladi. Keyingi o'rinni Qashqadaryo viloyati band etib, unda 513,5 ming gektar sug'oriladigan yer bo'lib, respublika sug'oriladigan yerlarining 11,81 foizi demakdir. Lekin shuni inobatga olish kerakki, Farg'ona vodiysi viloyatlari umumiy maydonning 4,12 foizini egallallagani holda sug'oriladigan yerlarning 1/5 qismidan ortiqrog'iga egalik qiladi.

Mazkur maqola mazmunidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlari maydoni va uning aholiga soniga nisbatan ko'rsatkichlarini tahlil etamiz. Aholi zichligi bo'yicha mamlakatimiz viloyatlarining barcha ma'muriy tumanlari tahlil etilganda eng yuqori ko'rsatkich Andijon viloyati Asaka tumanidir. Unda 1 km kv maydonga 1254,4 kishi to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarni Toshkent viloyati Toshkent tumani (1205,1 kishi), Andijon viloyati Shaxrixon tumani (969,6 kishi), Andijon viloyati Izboskan tumani (903,6 kishi), Toshkent viloyati Zangiota tumani (889,1 kishi) egallaydi (2-jadval). Ammo bizga ma'lumki aholining maskanlarining kattagina qismi sug'oriladigan maydonlarga to'g'ri keladi va u yerda respublikamiz aholi maskanlarining qariyb, 90 foizdan ortig'i joylashadi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlar maydoni va uning aholiga nisbatan ko'rsatkichlari

№	Hududlar	Umumiy yer maydoni (ming ga his.)	Maydonning respublikadagi ulushi	Sug' oriladigan yerlar maydoni (ming ga his.)	Sug' oriladigan yerlarning respublikadagi ulushi	Aholi soni (10.05.2024)	Aholining respublikadagi ulushi	1 ga sug' oriladigan yerga to' g' ri keluvchi aholi soni
1.	Qoraqolpog'iston R.	16656,1	37,10	517,0	11,91	2002,7	5,44	3,87
2.	Andijon	430,3	0,96	280,4	6,46	3394,4	9,22	12,11
3.	Buxoro	4183,1	9,32	280,2	6,45	2044,0	5,55	7,29
4.	Jizzax	2117,9	4,72	304,9	7,02	1507,4	4,10	4,94
5.	Qashqadaryo	2856,8	6,36	513,5	11,82	3560,6	9,68	6,93
6.	Navoiy	10948,1	24,39	126,0	2,90	1075,3	2,92	8,53
7.	Namangan	743,3	1,66	289,7	6,67	3066,1	8,33	10,58
8.	Samarqand	1677,3	3,74	379,4	8,74	4208,5	11,44	11,09
9.	Surxondaryo	2009,9	4,48	325,0	7,48	2877,1	7,82	8,85
10.	Sirdaryo	427,6	0,95	287,2	6,61	914,0	2,48	3,18
11.	Toshkent	1515,6	3,38	393,7	9,07	3051,8	8,29	7,75
12.	Farg'ona	675,3	1,50	368,7	8,49	4061,5	11,04	11,02
13.	Xorazm	608,2	1,35	268,4	6,18	1995,6	5,42	7,44
14.	Toshkent sh.	43,5	0,10	8,4	0,19	3040,8	8,26	362,00
		44892,4	100,0	4342,5	100,0	36799,8	100,0	8,47

Jadval O'zbekiston Respublikasi Yer fondi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan [2, 3].

Sug'oriladigan maydonlar esa respublikaning atiga 9,7 foizini tashkil etishi yuqorida ta'kidlandi. Bu esa umumiy zichlikka nisbatan aslida sug'oriladigan yerlarda bundan ham katta ekanligini bildiradi. Asaka tumani umumiy aholi zichligi bo'yicha eng yuqori o'rinni band etgani bilan ma'muriy tuman 1 ga sug'oriladigan yerga to'g'ri keluvchi aholi soni bo'yicha o'z o'rnini Navoiy

GEOGRAFIYA

viloyati Uchquduq tumaniga bo'shatib beradi. Uchquduq tumanida 1 ga sug'oriladigan maydonga 327,5 kishini (1 km² sug'oriladigan maydonga 32750 kishi) tashkil etadi (3-jadval). Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, mamlakatimizda 1 km kv maydonga aholi zichligi 8,2 kishini tashkil etgani holda, sug'oriladigan yerlarga nisbatan aholi zichligi 848,7 kishiga teng bo'lishini aytib o'tish zarur.

Sug'oriladigan maydonlarga nisbatan zichlikning yuqoriligida Navoiy viloyati Uchquduq tumani 2-o'rinni (1 km² sug'oriladigan maydonga 6352,5 kishi), Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani 3-o'rinni (1 km² sug'oriladigan maydonga 5451,1 kishi), Jizzax viloyati Forish tumani 4-o'rinni (1 km² sug'oriladigan maydonga 4992,4 kishi), Surxondaryo viloyati Boysun tumani 5-o'rinni (1 km² sug'oriladigan maydonga 2764 kishi) band etadi. Aholi zichligining brutto koeffitsentida 1-o'rinni qayd etgan Asaka tumani mazkur ro'yxatda 8-o'rinni band etib, 1 km² sug'oriladigan maydonga 1990,7 kishi to'g'ri keladi. Ko'rinib turibdi, bir qarashda maydoni jihatdan yirik hisoblangan Navoiy, Qashqadaryo, Jizzah va Surxondaryo viloyatlarining ham amalda zichligi o'ta yuqori hududlari mavjud (3-jadval).

Bizga ma'lumki, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublikamizda 177 ta ma'muriy tumanlar bo'lib, ularning 12 tasi Toshkent shahri tumanlaridir. Yana ikkita ma'muriy tuman yangi tashkil etilgan bo'lib, Namangan shahri tarkibiga kiradi. Ular Davlatobod va Yangi Namangan tumanlaridir. 1 gektar maydonga to'g'ri keluvchi aholi zichligi hisoblanganda shahar hududlari va shaharlarning ma'muriy tumanlari inobatga olinmaydi. Sababi shaharlarda sug'oriladigan maydonlar kam bo'lishi bu hisob ishlarini ishonchligini kamaytiradi. Sug'oriladigan asosiy maydonlar qishloq ma'muriy tumanlarida bo'ladi. Shuning uchun hisob ishlarini 164 ta ma'muriy tumanlar ustida amalga oshiriladi. Farg'ona viloyatining Quvasoy shahri respublikada yagona qishloq xo'jalik maydonlari bo'lgan shahardir. Shahar maydoni 25467 gektarni tashkil etib, uning 15132 gektari, ya'ni hududining 59,42 foizi sug'oriladigan yerlardir. Yuqoridagilarni ibodatga olib, (177-12-2+1=164 ta) 164 ta hududlar bo'yicha sug'oriladigan yerlarga aholi zichligini hisoblaymiz va brutto koeffitsent bilan solishtiramiz.

Umumiy ya'ni, brutto zichlik bo'yicha 164 ta ma'muriy hududning holati 1 km kv maydonga to'g'ri keluvchi aholi zichligi tartibida ko'rib chiqilganda, dastlabki 10 ta o'rinni band etgan ma'muriy hududlar 1 gektar sug'oriladigan yerlarga to'g'ri keluvchi aholi zichligi bo'yicha 8-42 o'rinlarni band etganligi ko'rinadi (4a-jadval). Ahamiyatli jihati shundaki, aholisi umumiy zichlik bo'yicha 1-o'rinni band etgan Asaka tumani sug'oriladigan yerlarga to'g'ri keluvchi zichlik bo'yicha o'z o'rnini 8 pog'ona pastlatib, Uchquduq tumaniga bo'shatib beradi. Uchquduq tumanida 1 gektar sug'oriladigan maydonga 327,5 kishiga to'g'ri keladi va bu respublikada rekord ko'rsatkich hisoblanadi. Ma'muriy tuman maydoni 4501456 gektarni tashkil etgani holda, unda atiga 120 gektar sug'oriladigan yer mavjud holos. Bu respublika bo'yicha eng kam ko'rsatkichdir. 1 gektar sug'oriladigan yerlarga to'g'ri keladigan aholi zichligi bo'yicha 1-10 o'rinlarni band etgan ma'muriy tumanlar umumiy zichlik bo'yicha 1-164 o'rinlarni band etadi (4b-jadval). Ahamiyatli tomoni shundaki, 1 gektar sug'oriladigan yerlarga to'g'ri keladigan aholi zichligi bo'yicha 1 va 2-o'rinlarni band etgan Uchquduq va Tomdi tumanlari, umumiy zichlik bo'yicha mos ravishda 163 va 164 o'rinlarni band etadi. Mazkur tumanlarning umumiy zichligi 1 km kv maydonga 0,9 va 0,4 kishiga to'g'ri keladi.

4a-jadval

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy tumanlarining umumiy va sug'oriladigan maydon bo'yicha zichlik tafovutlari (umumiy zichlik bo'yicha)

1 km ² maydonga			1 ga sug'oriladigan yerga		
O'rni	Ma'muriy tuman	Aholi zichligi	O'rni	Ma'muriy tuman	Aholi zichligi
1	Asaka	1254,4	8	Asaka	19,9
2	Toshkent	1205,1	9	Toshkent	19,3
3	Shaxrixon	969,6	14	Zangiota	16,0
4	Izboskan	903,6	17	Shaxrixon	14,4
5	Zangiota	889,1	18	Buloqboshi	14,3
6	Oltinko'l	866,5	25	To'raqo'rg'on	13,1
7	Norin	850,8	28	Izboskan	12,7

8	To'raqo'rg'on	813,3	31	Oltinko'l	12,1
9	Buvayda	811,0	33	Buvayda	11,8
10	Buloqboshi	810,2	42	Norin	10,4

Jadval O'zbekiston Respublikasi Yer fondi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblangan.

4b-jadval

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy tumanlarining umumiy va sug'oriladigan maydon bo'yicha zichlik tafovutlari (sug'oriladigan maydonlar bo'yicha)

1 ga sug'oriladigan yerga			1 km ² maydonga		
O'rni	Ma'muriy tuman	Aholi zichligi	O'rni	Ma'muriy tuman	Aholi zichligi
1	Uchquduq	327,5	1	Asaka	1254,4
2	Tomdi	63,5	2	Toshkent	1205,1
3	Dehqonobod	54,5	51	So'x	380,1
4	Forish	49,9	132	Qo'shrabot	65,7
5	Boysun	27,6	140	Dehqonobod	40,3
6	Qo'shrabot	24,9	141	Boysun	38,3
7	Nurobod	22,0	147	Nurobod	33,5
8	Asaka	19,9	155	Forish	10,3
9	Toshkent	19,3	163	Uchquduq	0,9
10	So'x	18,7	164	Tomdi	0,4

Jadval O'zbekiston Respublikasi Yer fondi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblangan.

Masalan, Samarqand viloyatining Joyboy tumani umumiy zichlik ko'rsatkichi bo'yicha 1 km kv maydonga 338,7 kishi bilan 59-o'rinni band etadi. Vaholanki, uning 1 gektar sug'oriladigan maydonga to'g'ri keluvchi aholi zichligi 6,0 kishiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich bilan mazkur tuman 97 o'rinni band etmoqda. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy tumanlarining umumiy va sug'oriladigan maydon bo'yicha zichlik tafovutlari jadvalining to'liq holatini mualliflardan olish mumkin (Jadvalni to'la shaklda joylashtirish imkoni bo'lmadi, zarur xollarda mualliflar bilan bog'lanish mumkin).

Avvalgi tadqiqotlarda huddi shu usul bilan Farg'ona vodiysining 40 ta ma'muriy tumanlari tahlil etilgan va aholi soni oz va zichligi bo'yicha Farg'ona vodiysi ma'muriy tumanlari ichida 38-o'rinda qayd etiladigan So'x tumanining aslida 1 ga sug'oriladigan yerga to'g'ri keluvchi aholi soni bo'yicha 1-o'rinni qayd etilishi asoslangan edi [11]. Respublika taxlilida So'x tumani umumiy zichlikda 51-o'rinni, sug'oriladigan maydonlar bo'yicha 10-o'rinni qayd etdi.

Bunday tafovutning mavjudligi tumanlarning yer resurslari bilan (maydon bilan emas) ta'minlanganlik darajasini hududning tabiiy-landshaft sharoitlariga qanchalik bog'liq ekanligini ko'rsatadi va aholi zichligini landshaft mintaqalari bo'yicha hisoblashgina haqiqiy demografik yukni topish imkonini beradi degan fikrga kelishimizga asos bo'ladi.

XULOSA

Misollardan go'yoki (umumiy zichlikda past ko'rsatkich qayd etgan tumanlardan) hozirda o'zlashtirish imkoniyati bor yerlar mavjud degan xulosa chiqarish mumkin. Biroq, o'zlashtirish imkoniyati bo'lgan yerlar to'liq o'zlashtirilib, sug'oriladigan yerlarga qo'shilgan. Sug'oriladigan yerlar bo'yicha ko'pchilik cho'l tumanlari aholisi yer resurslari bilan eng kam ta'minlanganlar ichida oxirgi o'rinlarni band etmoqda. Shuning uchun u yerdagi muammolar davlat miqyosida xal etilmoqda. Hususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi "2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi PQ-2639-sonli qarori, Prezidentning 2017-yil 25-apreldagi "Navoiy viloyatining olis cho'l tumanlari aholisi turmush darajasini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2925-sonli qarori, Prezidentning 2017-yil 8-avgustdagi "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3182-sonli qarori, Prezidentning 2017-yil 29-sentabrdagi "Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari hamda Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3301-son qarori, Prezidentning 2020-yil 8-

GEOGRAFIYA

avgustdagi “2020-2021 yillarda Farg‘ona viloyatining So‘x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4798-sonli qarorlari shudar jumlasidandir [4, 5, 6, 7, 8].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida»gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-4973063>
2. O‘zbekiston Respublikasining Yer fondi (2023-yil 1-yanvar holatiga) ma‘lumotlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari: <https://stat.uz/uz/>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2639-sonli qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 25-apreldagi “Navoiy viloyatining olis cho‘l tumanlari aholisi turmush darajasini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2925-sonli qarori
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-sonli qarori
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 29-sentabrdagi “Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari hamda Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish va aholi bandligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3301-son qarori
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 8-avgustdagi “2020-2021 yillarda Farg‘ona viloyatining So‘x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4798-sonli qarorlari
9. Аҳмадалиев Ю., Абдувалиев Ҳ. Фарғона водийсида аҳоли жойлашувини тадқиқ этишда ландшафт ёндашувининг қўлланилиши // Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 57-жилд. –Тошкент, 2020. –Б. 83-87 б.
10. Аҳмадалиев Ю., Абдувалиев Ҳ. Норасмий меҳнат бозорлари шаклланишининг геодемографик хусусиятлари // Ўзбекистонда бозор ислохотлари шароитида банд бўлмаган аҳоли муаммоларини ечишда олий таълим муассасаларининг ролини ошириш. Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. – Фарғона, 2019. –Б. 63-64 бетлар;
11. Аҳмадалиев Ю., Абдувалиев Ҳ. Фарғона водийсида аҳоли жойлашувини ландшафт омили асосида такомиллаштириш. Монография. “Classic” нашриёти, Фарғона, 2021. 140 б.
12. Мўминов Д. Қишлоқ жойларнинг геоэкологик - хўжалик ҳолати ва уни такомиллаштириш йўллари. Геог. фан. ном. ...дис. автореф. - Т., 2011. -22 б.